

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL I	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

TRANSFORMATION OF THE CONCEPT OF “HUMANITY” IN THE MODERN CONTEXT

Markhabo Davlatovna Pardaeva

Professor at Bukhara State Technical University

Abstract. This article examines the historical and philosophical roots of the concept of “humanity,” particularly its interpretation in the worldview of Alisher Navoi and the transformation of this concept in the modern context. In Navoi’s works, “humanity” is presented as a fundamental moral norm that reflects spiritual perfection, honesty, compassion, and social responsibility. In the era of globalization, technological advancement, and increasing individualism, this concept acquires new social, moral, and cultural dimensions. The study discusses ways to preserve humanity as an eternal value based on Navoi’s legacy, as well as relevant pedagogical and educational mechanisms for instilling it in the consciousness of the younger generation. The article also highlights the interconnection between cultural heritage and modern public consciousness.

Keywords: humanity, Navoi’s worldview, spiritual values, modern context, moral norms, education, cultural transformation, humanism, spirituality, public consciousness.

“ODAMIYLIK” TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI

Pardayeva Marhabo Davlatovna

Buxoro davlat texnika universiteti professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada “odamiylik” tushunchasining tarixiy-falsafiy ildizlari, xususan, Alisher Navoiy tafakkuridagi talqini va uning zamonaviy kontekstdagi o’zgarishlari tahlil qilinadi. Alisher Navoiy asarlarida “odamiylik” insonning ma’naviy barkamolligi, halolligi, rahmdilligi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ifodalovchi asosiy axloqiy me’yor sifatida qaraladi. Bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va individualizm kuchaygan davrda esa, bu tushuncha yangicha ijtimoiy, axloqiy va madaniy talqinlarga ega bo’lmoqda. Tadqiqotda Navoiy merosi asosida odamiylikning abadiy qadriyat sifatida saqlanib qolish yo’llari, shuningdek, uni yosh avlod ongiga singdirishning dolzarb pedagogik va tarbiyaviy mexanizmlari muhokama qilinadi. Maqola, shuningdek, madaniy meros va zamonaviy ijtimoiy ong o’rtasidagi uzviylikni yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: odamiylik, Navoiy tafakkuri, ma’naviy qadriyatlar, zamonaviy kontekst, axloqiy me’yorlar, tarbiya, madaniy transformatsiya, insonparvarlik, ma’naviyat, ijtimoiy ong.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N33>

Kirish. Har bir jamiyatning axloqiy-ruhiy poydevorini tashkil etuvchi eng muhim tushunchalardan biri bu – odamiylikdir. Insoniyat tarixida bu tushuncha turli davrlarda, madaniyatlarda va tafakkur maktablarida o’ziga xos tarzda talqin qilingan bo’lsa-da, uning mohiyati – insonni inson qiluvchi fazilatlarini ifodalashga qaratilgan. Odamiylik tushunchasi faqat ma’naviy qadriyat emas, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy taraqqiyot va shaxsiy kamolot mezonidir.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida “odamiylik” g’oyasi markaziy o’rinni egallaydi. U insonni nafaqat aql va bilim egasi, balki axloqiy barkamollik sari intiluvchi

mavjudot sifatida tasvirlaydi. Navoiy tafakkurida odamiylik – halollik, rahm-shafqat, vafodorlik, fidoyilik, sabr-toqat kabi xislatlar majmui orqali namoyon bo'ladi. Bu tushuncha, mutafakkir nazarida, nafaqat shaxsiy, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi zamonaviy dunyoda esa, odamiylik tushunchasi ko'plab ijtimoiy, texnologik va madaniy omillar ta'sirida o'zgarishga uchramoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, shaxsiy manfaatlarning ustuvorligi, individualizmning kuchayishi kabi holatlar insoniy qadriyatlarning qayta ko'rib chiqilishini talab qilmoqda. Ana shunday sharoitda odamiylikning qanday qiyofa kasb etayotgani, uning tarixiy ildizlari bilan zamonaviy talqinlari o'rtasidagi uzviylikni anglash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili. “Odamiylik” tushunchasining ildizlari qadimiy Sharq tafakkurida chuqur aks etgan bo'lib, u avvalo insonning axloqiy-ruhiy barkamolligini ifodalovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha, Zardushtiylik, Islom falsafasi va tasavvufda alohida o'rin tutgan. Ayniqsa, Forobiy, Ibn Sino, Imom G'azzoliy kabi mutafakkirlar asarlarida odamiylik fazilatlarini ilm va hikmat bilan uyg'unlashgan holda bayon qilingan.

Alisher Navoiy tafakkurida “odamiylik” markaziy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Uning asarlarida inson kamolotining mezoni sifatida rahm-shafqat, fidoyilik, halollik, sabr, vafodorlik singari fazilatlar ulug'lanadi. Xususan, “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy “odamiylik”ni jamiyat taraqqiyoti va ruhiy poklikning tayanchi sifatida ko'rsatadi. Navoiy uchun odamiylik bu – jamiyatga foydali bo'lish, el dardini o'z dardiday his qilish, boshqalarga yaxshilik qilish orqali Alloh roziligiga erishish vositasidir.

Zamonaviy adabiyotlarda esa “odamiylik” tushunchasi ko'p qirrali sotsiologik va falsafiy jihatdan yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Jumladan, E. Fromm [9] odamiylikni insonning erkinlikka, muhabbatga va yaratuvchanlikka intilishi orqali tavsiflaydi. J. Morin [10], A. Toynbi [11], T. Parsons [12] kabi mutafakkirlar global ijtimoiy inqirozlar davrida insoniy qadriyatlar (jumladan odamiylik) yo'qolib borayotganini ta'kidlab, ularni tiklash zarurligini ko'rsatgan.

O'zbekistonlik zamonaviy olimlar ham ushbu mavzuni tadqiq etgan. Jumladan, A. Yo'ldoshev, N. Komilov, M. Jurayev, H. Boltaboyevlarning ishlari ma'naviy qadriyatlar, milliy o'zlik va odamiylikni tarbiyaviy jarayonlarda tiklashga qaratilgan. Bu asarlarda “odamiylik” tushunchasi pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy va jamiyatshunoslik nuqtai nazaridan keng yoritilgan.

Shuningdek, zamonaviy axborot muhitida odamiylikka bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Global axloqiy inqiroz, individualizm va raqamli odatlarning ustunligi sababli odamiylik tushunchasi yangicha ijtimoiy talqinlarga ega bo'lmoqda. Shu bois, Navoiy merosini qayta o'rganish va uni zamonaviy kontekstda talqin qilish ilmiy va ma'naviy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Metod va metodologiya. Mazkur tadqiqotda “odamiylik” tushunchasining tarixiy-falsafiy ildizlari va uning zamonaviy kontekstdagi o'zgarishlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ilmiy ishlanmaning metodologik asosini kompleks yondashuv, tahliliy-taqqoslov va tarixiy-falsafiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda quyidagi metod va metodologik yo'nalishlar qo'llanildi:

Tarixiy-falsafiy metod. Bu metod yordamida “odamiylik” tushunchasining shakllanishi, Sharq mutafakkirlarining (xususan, Alisher Navoiy) tafakkurida qanday tarixiy bosqichlardan o'tganligi va uning mohiyati yoritildi. Navoiy asarlari asosida odamiylik tushunchasining falsafiy asoslari tahlil qilindi.

Mazmuniy-tahliliy metod. Alisher Navoiy asarlarida “odamiylik” tushunchasining qanday ma’no va axloqiy yuklamalarda qo’llanilgani semantik tahlil orqali o’rganildi. Bunda matn tahliliga, g’oya va obrazlar talqiniga e’tibor qaratildi.

Qiyosiy tahlil. Navoiy tafakkuridagi odamiylik talqini zamonaviy g’arb va sharq mutafakkirlarining qarashlari bilan taqqoslab, tushuncha zamonaviy kontekstda qanday o’zgarishlarga uchragani aniqlab berildi.

Sotsiologik yondashuv elementlari. Zamonaviy jamiyatda odamiylik tushunchasining talqinini o’rganishda jamoaviy ong, axloqiy qadriyatlar va yoshlar dunyoqarashiga oid so’rovnoma va kuzatuvlarga tayangan holda ijtimoiy kontekst tahlil qilindi.

Pedagogik metodlar. Odamiylikni yosh avlod ongiga singdirish mexanizmlarini aniqlashda tarbiyaviy yondashuvlar va axloqiy-ma’naviy tarbiya metodlariga tayangan holda takliflar ishlab chiqildi.

Bu metodlar bir-birini to’ldiruvchi va mustahkamlovchi tarzda tadqiqotning har bir bosqichida qo’llanilgan bo’lib, “odamiylik” tushunchasining tarixiy asoslari va zamonaviy ijtimoiy-madaniy kontekstdagi transformatsiyasini chuqur tahlil etish imkonini berdi.

Muhokama. “Odamiylik” insoniyat tafakkurida eng qadimiy tushunchalardan biri bo’lib, u insonning nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy roli, balki uning axloqiy, ma’naviy va ruhiy dunyosini ifodalaydi. O’zbek falsafiy tafakkuri va adabiyotida “odamiylik” degan tushuncha ko’p jihatdan shaxsiy barkamollik, axloqiy komillik, boshqalarga nisbatan samimiy munosabat, mehr-oqibat bilan bog’liq holda talqin etilgan.

Alisher Navoiy o’zining “Mahbub ul-qulub” asarida odamiylikni komil insonning asosiy mezoni sifatida ko’rsatadi. Jumladan, “Odamiy ersanr, demagil odami, Yo’q erur odam, bo’lsa, yo’q odamiy” kabi misralar ushbu tushunchaning mohiyatini teran ochib beradi. Bu yerda “odamiylik” — shunchaki jismoniy mavjudlik emas, balki ichki ma’naviy yetuklik darajasi sifatida ko’riladi [3].

“Odamiylik” Navoiy tafakkurida — bu, avvalo, axloqiy yuksaklik, ruhiy poklik, mehr-oqibat, adolat va ilmga tashnalik bilan bog’liq holatdir.

Odamiylik — bu insonning jamiyatga bo’lgan mas’uliyati, vijdoni, saxiyligi va sabr-toqati orqali namoyon bo’ladi.

Navoiy fikricha, odamiylik quyidagi asosiy fazilatlar orqali ifodalanadi:

Ilm va tafakkurga intilish — Navoiy ko’plab asarlarida johillikni odamiylikka zid holat sifatida talqin etadi. “Ilmsiz kishini odam deyish mushkul”, deya u aql va bilimni insoniylik mezoni sifatida ko’rsatadi.

Saxovat va muruvvat — “Odamiylik” saxiylik bilan chambarchas bog’liq. “Xazoyin ul-maoniy”da saxovatli kishilar jamiyatning suyanchig’i, deb ta’riflanadi.

Mehnatsevarlik — Inson o’z mehnati bilan ro’zg’orini yuritisa, boshqalarga tilanchilik qilmasa — bu ham odamiylikdir.

Adolat — Navoiy davlat boshqaruvida ham, shaxsiy hayotda ham adolat mezonini yuqori qo’yadi.

Kambag’allarga mehr — “Fano va fano” g’oyasida inson faqat o’zini emas, boshqalarni o’ylab yashashi kerak, deyiladi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy merosi, urf-odatlari va diniy e’tiqodlari asosida shakllanadigan ijtimoiy ong elementlaridir. Odamiylik esa bu qadriyatlar

tizimining markaziy g'oyasi bo'lib, quyidagi komponentlar orqali milliy qadriyat darajasiga ko'tariladi:

- Aks ettirish shakllari: xalq og'zaki ijodi, maqollar, dostonlar, udumlar;
- Institutlar orqali mustahkamlanishi: oila, mahalla, maktab, diniy maskanlar, ta'lim tizimi;
- Amaliy ko'rinishlari: muruvvat, saxovat, mehribonlik, ota-onaga ehtirom, yordamsevarlik, katta-kichik hurmati.

Bunda milliy axloqiy meros va islomiy g'oyalar birlashib, odamiylikni ijtimoiy xulq va shaxsiy madaniyat mezonini sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy dunyoqarash, ilm-fan, texnologiyalar va globallashtirish jarayoni odamiylik tushunchasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda bu tushuncha quyidagicha yangilanmoqda:

Zamonaviy me'yorlar bilan uyg'unlashuvi: Inson huquqlari, fuqarolik burchi, ekologik madaniyat, gender tengligi kabi universal qadriyatlar bilan integratsiyalashmoqda.

Inson markazidagi (антропоцентризм) yondashuv: ilgari jamoaviy xulq mezonini sifatida talqin etilgan odamiylik, endi har bir shaxsning ichki ma'naviy dunyosi, axloqiy tanlovi sifatida qaralmoqda.

Axborot makoni ta'siri: ommaviy axborot vositalari, blogerlar va internet tarmog'ida odamiylik qadriyatlari ba'zida sun'iy talqin qilinmoqda yoki soddalashtirib ko'rsatilmoqda. Bu esa odamiylik tushunchasini ijtimoiy tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi.

Shu sababli, odamiylik bugungi kunda nafaqat shaxsiy-axloqiy fazilat, balki ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik ongining asosiy negizi sifatida talqin qilinmoqda.

Milliy qadriyat sifatida "odamiylik"ning jamiyatda barqaror bo'lishi uchun quyidagi omillar muhim:

- Ta'lim tizimi orqali uzluksiz targ'ib qilish;
- OAV va internet platformalarida ijobiy misollarni ko'paytirish;
- Adabiyot va san'atda ushbu tushunchani turli zamonaviy shakllarda ifodalash;
- Huquqiy tizimda insonparvarlik g'oyalarini mustahkamlash;
- Milliy g'oya va ma'naviyat konsepsiyalarida asosiy qadriyat sifatida belgilanishi.

Shunday qilib, odamiylik — bu o'zbek milliy ongining yadro tushunchalaridan biri bo'lib, u tarixiy jarayonlar, madaniy me'yorlar va zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg'unlashgan holda takomillashmoqda. Bugungi kun talablari odamiylik tushunchasini yangicha yondashuvlar asosida anglash, targ'ib qilish va mustahkamlash zaruratini taqozo etmoqda. Shu jihatdan, odamiylik nafaqat shaxsiy axloq, balki barqaror jamiyatning ijtimoiy asoslaridan biri sifatida qaraladi.

Milliy qadriyat sifatida "odamiylik"ning o'ziga xos xususiyatlarini Hazrat Navoiy qarashlari asosida izohlash lozim. Alisher Navoiy hazratlarining odamiylik borasidagi qarashlari badiiy, falsafiy, pandnoma shakllarida ifoda etilgan. Ta'kidlash joizki, mutafakkir asarlarida odamiylik tushunchasi "futuvvat" ma'nosida ham ishlatilgan. Futuvvat – tasavvufning asosiy o'zak tushunchasi. Tasavvuf inson kamoloti xususidagi ta'limot. Futuvvatning bu ta'limotga ta'siri juda kattadir. Alisher Navoiyning zamondoshi Husayn Voiz Koshifiy ta'kidlaganidek, "Istilo sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunaviy axloq bilan mashhur bo'lishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o'z kasbdoshlari, toifa-tabaqasi orasida mumtoz bo'ladi. Xos ta'rif yuzasidan esa

futuvvat insoniy fitrat nuri nafsoniy belgilar zulmatiga qarshi qo'yilishi, shu zulmatni yorib o'tishidan iboratdir" [1].

Navoiy asarlarida futuvvat g'oyasi chuqur mazmun va go'zal badiiy shakl uyg'unligida namoyon etilgan. "Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun" dostonlarida futuvvatning inson kamolotidagi o'rni tadqiq qilingan. "Nasoyim ul-muhabbat"da mutasavviflar kamolotida futuvvatning o'rniga e'tibor qaratilgan. Tasavvuf vakillarining futuvvat xususidagi fikrlaridan iqtiboslar keltiradi. Bu esa, odamiylik Navoiyning doimiy diqqat e'tiboridan joy olganligiga dalolatdir. Jumladan, "Favoyid ul-kibar" devonida mutafakkir futuvvatga qisqa, lo'nda ta'rif beradi:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo'q [2].

Ta'kidlash joizki, Navoiy asarlarida futuvvat ko'p hollarda muruvvat bilan birgalikda talqin etiladi. Demak, muruvvat tuyg'usi futuvvatning negizini tashkil etadi. Aynan mazkur xulosa Husayn Voiz Koshifiyda ham uchraydi: "Futuvvatning uch martabasi bor: avval saxovat, ya'ni bor narsani hech kimdan qizg'anmaslik. Ikkinchisi – safo, ya'ni qalbni kibr-u havo, gina-qudrat, qasd-g'azabdan pokiza, pok tutish. Uchinchisi – vafo, ya'ni hamma vaqt xalq xizmatida bo'lish".

Yuqorida inson ruhi xususida fikr yuritgan edik. Futuvvatning asosiy mavzui – inson qalbi hisoblanadi. Kamolotga erishuv yo'lida insonning nafs ustidan g'alabaga erishishi – futuvvatning asosini tashkil etadi. Mutafakkir o'z asarlarida futuvvat va muruvvatni egizak tushunchalar sifatida talqin etadi. Demak, bu tushunchalar bir-birini taqozo etadi. Ikkinchidan esa, barcha ezgu amallarning, odamiylikning asosi ana shu ikki fazilatga bog'liq.

Tasavvufning ajralmas qismi hisoblangan futuvvatdan maqsad insonning kamolga erishmog'idir. Futuvvatga Sharq mutafakkirlari juda katta e'tibor bilan qaraganlar. Jumladan, Fariduddin Attor futuvvatning 72 talabi, Husayn Voiz Koshifiy uch martabasi, ikki sifat, o'n ikki rukn va 71 sharti xususida fikr yuritganlar. Mutafakkir Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Abu Abdulloh Sijziy haqida yozganida, futuvvatning mohiyatini yanada teran ochib bergan: "Ondin so'rdilarki, futuvvat nedur? Dedikim, xaloyiqni ma'zur tutmoq. Ulcha alarga o'tar va o'z taqsin ko'rmak va shafqat borcha elga ne solih, ne tolih. Va futuvvatning kamoli uldurki, kishini xalq Tengridin mashg'ul qila olmag'aylar" [4]. Xulosa shuki, futuvvat darajasiga yetmoq uchun inson komillikda juda yuksaklikka ko'tarilgan bo'lmog'i darkor. Har qanday muomala va munosabatda inson o'zini aybdor his qilmog'i, Tangri rizoligidan boshqa ishga chalg'imaslik albatta, oson ish emas. Buyuk mutafakkir Navoiyning o'zlari futuvvatning mazkur yuksak maqomiga erisha olganlar va asarlarida keng ko'lamda talqin eta olganlar. Bu xususda Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida keltirilishicha, "...maqtagan Amirning (Navoiyning – M.P.) cheksiz yaxshiliklari bu borliq olamda shuhrat topish yoki abadiy olamda katta savobga erishish uchun qilingan emasdi. Chunki bu dunyo va undagi narsalar ul zotning himmat nazarida bir somon xasichalik qimmatga ega emasdi. Ammo cheksiz ochiqqo'llik va saxiylik xislatiga ega bo'lishiga qaramasdan, hech qachon hech kimga bir arpa donichalik ham minnat qilmasdi" [5]. Mazkur asarda mutafakkirning butun boyligini xalq manfaati yo'liga sarflagani, jumladan, barpo etgan 60 dan ortiq bino, 20 ga yaqin hovuz, 16 ko'pri, 9 hammom, 20 masjid va juda ko'p madrasa, xonaqohlar nomma-nom sanalgan, shuningdek, umrining oxirida bor mulkini vaqf sifatida topshirganligi xususidagi ma'lumotlar keltirilgan. Demak, hazratning o'zlari fatiylarning komili bo'lganlar.

Alisher Navoiy asarlarini o'rganish orqali biz mutafakkirni millatning ma'naviy murabbiysi ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qildik. Buning sababi shundaki, birinchi va ikkinchi Renessans davri shoirlarining bizgacha yetib kelgan devonlaridagi g'azallar, asosan, ishqiy yoki irfoniy mavzularda bo'lib, orasida bir yoki ikki bayt ijtimoiy axloqiy mavzularda bo'lgan. Buyuk mutafakkir Navoiyning asarlari esa, boshidan oxirigacha juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan nazariy masalalarga bag'ishlangan.

“Odamiylik” tushunchasi o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan milliy ong va ma'naviy dunyoqarashining tamal g'oyalaridan biri hisoblanadi. Bu tushuncha xalqimiz tafakkurida faqatgina axloqiy fazilat emas, balki milliy o'zlikning asosiy mezon, ijtimoiy munosabatlar axloqi, va komil insonni tarbiyalash mezon sifatida qaraladi.

Shu jihatdan, odamiylikni quyidagicha milliy ongning yadro kategoriyasi sifatida tushunish mumkin:

Tarixiy-madaniy asosga ega: Odamiylik o'zbek xalq og'zaki ijodida, adabiyotida (Navoiy, Ogahiy, Furqat, Behbudiy asarlarida) markaziy g'oya sifatida ifoda etilgan.

Ma'naviy birlik timsoli: Bu tushuncha xalqning umumiy qadriyatlar tizimini birlashtiruvchi, e'tiqod va urf-odatlar bilan uyg'unlashgan ma'naviy mezondir.

Axloqiy me'yor va pedagogik ideal: Har bir ota-ona farzandini “odam bo'l” degan vasiyat bilan tarbiyalaydi — bu esa odamiylikni ma'naviy idealga aylantiradi.

O'zbekchilik timsoli: Odamiylik mehmondo'stlik, kattaga hurmat, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi milliy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy barqarorlik kafolati: Odamiylik tamoyiliga asoslangan munosabatlar mahalla, oila va jamiyat hayotida barqarorlikni ta'minlaydi.

Demak, odamiylik o'zbek milliy ongida faqatgina qadimiy urf-odat emas, balki xalqning o'zligini anglash, ijtimoiy adolatni tushunish va barkamol jamiyatni qurishdagi yadro tushuncha sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida ta'kidlash joizki, “odamiylik” tushunchasi o'zining ildizlari va ma'naviy-falsafiy mohiyati jihatidan doimo jamiyat hayotining muhim asoslaridan biri bo'lib kelgan. Alisher Navoiy tafakkurida bu tushuncha insoniy komillik, axloqiy yetuklik, rahm-shafqat, vafodorlik va jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi yuksak fazilatlar bilan uyg'unlashgan holda talqin etiladi. U odamiylikni faqat shaxsiy axloqiy qadriyat sifatida emas, balki ijtimoiy taraqqiyot, milliy birlik va ma'naviy uyg'unlikning negizi sifatida ko'radi.

Bugungi globallashtirish va texnologik taraqqiyot davrida esa odamiylik tushunchasi yangi ijtimoiy, madaniy va axloqiy kontekstda qayta talqin qilinmoqda. Individualizm, raqamli aloqa vositalarining ustuvorligi va axborot oqimi bosimi ostida odamiylikning an'anaviy talqinlari qisman zaiflashmoqda. Shunday sharoitda Navoiy merosi zamonaviy inson uchun ma'naviy yo'lchi, ma'rifiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maqolada odamiylik tushunchasini yosh avlod ongiga singdirish, uni ta'lim-tarbiya tizimi orqali mustahkamlash zarurligi asoslab berildi. Shu bilan birga, odamiylikni abadiy qadriyat sifatida saqlab qolish uchun pedagogik, madaniy va sotsial mexanizmlarni uyg'unlashtirish lozimligi ta'kidlandi.

Xulosa qilib aytganda, odamiylik – bu o'tkinchi hodisa emas, balki tarixiy ildizlarga ega, zamonaviy talqinlarga ochiq va kelajakka yo'naltirilgan universal qadriyatdir. Alisher Navoiyning bu boradagi merosi esa, hozirgi va kelajak avlodlar uchun bebaho ma'naviy boylikdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati / Tarjimon: N. Komilov. – Toshkent: 2011. – B. 16.
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. TAT, 10 jildlik. 4-jild. – Toshkent: 2011. – B. 741.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1993. – 208 b.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. TAT, 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 155.
5. Ghiyosiddin Khondamir. Makarim ul-axloq / Fors tilidan K. Rahimov tarjimasi. – Toshkent: 2018. – B. 169.
6. Komilov N. Ruhiyat va mafkura. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2002. – 264 b.
7. Gʻazzoliy A. Kimyo-yi saodat. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2004. – 392 b.
8. Hoshimova D. “Odamiylik” konsepti oʻzbek adabiy manbaalarda // Filologiya masalalari. – 2020. – №3. – B. 112–117.
9. Fromm E. The Art of Loving. – New York: Harper & Row, 1956. – 140 p.
10. Morin E. La Voie: Pour l'avenir de l'humanité. – Paris: Fayard, 2011. – 360 p.
11. Parsons T. The Social System. – New York: The Free Press, 1951. – 556 p.
12. Toffler A. Future Shock. – New York: Random House, 1970. – 505 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).